

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

NAMANGAN MUXANDISLIK-QURILISH
INSTITUTI

«ENERGETIKA SANOATNI
AXBOROTLASHTIRISH» FAKUL'TETI

«Informatika va AT» kafedrası

Web dasturlash

fanidan tajriba ishlarini bajarish bo'yicha

Uslubiy ko'rsatma

7-qism

Namangan

«Web dasturlash» fanidan tayyorlangan uslubiy ko'rsatma 5111000 –Kasb ta'limi (Informatika va axborot texnologiyalari) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan talabalar va fan o'qituvchilari hamda mustaqil o'rganuvchilar foydalanishlari mumkin. Ushbu uslubiy ko'rsatma «Web dasturlash» fanidan tajriba ishlarini bajarish uchun mo'ljallangan. Unda tajriba ishlarini bajarish namunalari va topshiriqlar berilgan.

Uslubiy ko'rsatma na'munaviy o'quv dasturi asosida tuzilgan.

Muallif: U.G'oyipov– NamMQI «Informatika va axborot texnologiyalari» kafedrasida o'qituvchisi

Taqrizchilar - M.Olimov – NamMQI «Informatika va axborot texnologiyalari» kafedrasida dotsenti
- N.Otaxonov- NamDU Amaliy matematika va informatika kafedrasida mudiri, t.f.n.

Uslubiy ko'rsatma NamMQI “Informatika va AT” kafedrasining 201_ yil “___” _____ dagi “___” - son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakul'tet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

(Bayonnoma №_____ «___» _____ 201_ yil)

Uslubiy ko'rsatma NamMQI “Energetika sanoatni axborotlashtirish” fakulteti ilmiy-uslubiy kengashida muxokama qilingan va ko'rib chiqish uchun institut ilmiy kengashiga tavsiya etilgan.

(Bayonnoma №_____ «___» _____ 201_ yil)

Uslubiy ko'rsatma NamMQI ilmiy-uslubiy kengashida muxokama qilingan va chop etishga tavsiya etilgan.

(Bayonnoma №_____ «___» _____ 201_ yil)

SO'Z BOSHI

Bugungi kunda axborot kommunikatsion texnologiyalar, xususan internet texnologiyalari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu esa talabalarni internetda ishlash ko'nikmalari bilan bir qatorda milliy hususiyatlarimizni hisobga olgan holda turli web saytlar yaratish texnologiyalarini bilishlari talabini qo'yadi.

Internet tarmog'ida ishlash, elektron sahifalardan foydalanish hamda elektron metodik materiallarni yaratishda web dasturlash tillari va dasturiy vositalari muhim vosita sifatida tobora ko'payib bormoqda. Ayniqsa, yaratilayotgan saytlarning aksariyati dinamik hususiyatga ega ekanligi, interaktivlik va kengaytirish imkoniyati mavjudligi bunday tipdagi saytlarni yaratish ehtiyojining ortishiga olib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida foydalanuvchilar o'rtasida qaysi web dasturlash tillari yoki dasturiy vositalarni qoyilgan masalaning mazmunidan kelib chiqqan holda o'rganish lozimligi muammolarini keltirib chiqaradi.

Ushbu uslubiy ko'rsatmada web sahifalarni yaratish bo'yicha tajriba mashgulotlarni bajarish uchun topshiriqlar bir-biriga bog'liq ravishda bosqichma-bosqich berilgan bo'lib, web sahifalar uchun JQuery kutubxonasidan foydalanish, ma'lumotlar omborini yaratish va undan sahifada foydalanish amaliy ishlari namunalari ko'rsatilgan.

1-tajriba ishi

Ishning mazmuni: PHP va JQuery bilan ishlash. JQuery kutubxonasini saytga bog`lash. JQueryda hodisalar

Ishning maqsadi: JQuery kutubxonasi haqida tushunchaga ega bo`lish. Selektor va hodisalarni o`rganish. Talabalarda PHP va JQuery bilan ishlash hamda JQuery kutubxonasini saytga bog`lash bo`yicha amaliy malakalarni xosil qilish.

Nazariy qism

JQuery – bu tez, kichik va boy JavaScript kutubxona. U orqali HTML hujjat ob`yekt modeli manipulyatsiyalari, hodisalarni qayta ishlash, animatsiyalar bajarish, AJAX so`rovlari bilan ishlashni osonlashtirish chun mo`ljallangan.

Misollar:

1. Yashirish va ko`rsatish.

```
<html>

<head>

<link rel=«stylesheet" href="bootstrap.min.css"/>

<script src=«jquery.min.js"></script>

<script>

$(document).ready(function(){

$("#hide").click(function(){

$("#p").hide();

});

$("#show").click(function(){

$("#p").show();

});

});

</script>

</head>

<body>

<div class=«container well»>

<p class=«text-center»> If you click on the "Hide" button,I will disappear.</p>

<button id=«hide» class=«btn btn-success btn-sm">Hide</button>

<button id=«show" class=«btn btn-warning btn-sm">Show</button>
```

</div>

</body>

</html>



2. Matnni yashirish.

<html>

<head>

<link rel="stylesheet" href="bootstrap.min.css"/>

<script src="jquery.min.js"></script>

<script>

\$(document).ready(function(){

\$("#p").click(function(){

\$(this).hide();

})

})

</script>

</head>

<body>

<div class="container">


<p>If you click on me, I will disappear.</p>

<p>Click me away!</p>

<p>Click me too!</p></div>

</body>

</html>



3. Focus va Blur

```
<html>

<head>

<link rel="stylesheet" href="bootstrap.min.css"/>

<script src="jquery.min.js"></script>

<script>

$(document).ready(function(){

$("input").focus(function(){

$(this).css("background", "#cccccc");

})

$("input").blur(function(){

$(this).css("background", "#ffffff")

})

})

</script>

</head>

<body>

<div class="container well">

<form action="JQuery_1.php">

<label for="ism">Ism </label><input id="ism" style="margin-left: 50px" type="text"/><br/>

<label for="fam">Familya </label><input id="fam" style="margin-left: 22px" type="text"/>

<br/>


<input type="submit" value="Jo'natish"/>

<input type="reset" value="Tozalash"/>

</form>

</body>

</html>
```



4. Hover hodisasi.

```
<html>
```

```

<head>

<link rel="stylesheet" href="bootstrap.min.css"/>

<script src="jquery.min.js"></script>

<script>

$(document).ready(

function(){

$("#btn").hover(function(){

alert("You entered button!");

},

function(){

alert("By! You now leave button!");

})

})

</script>

</head>

<body>

<div class="container well">

<form action="JQuery_1.php">

<label for="ism">Login: </label><input id="ism" style="margin-left: 50px"

type="text"/><br/>


<label for="fam">Passoword: </label><input id="fam" style="margin-left: 12px"

type="password"/> <br/>

<button class="btn btn-success btn-lg" id="btn">Enter</button>

</form></body></html>

```



5. Mouseleave hodisasi.

```

<html>

<head>

```

```

<link rel="stylesheet" href="bootstrap.min.css"/>

<script src="jquery.min.js"></script>

<script>

$(document).ready(function(){

$("#in").mouseleave(function(){

alert("Emailingizni kiritdingizmi!")

})

})

</script>

</head>

<body>

<div class="container well">

<form action="JQuery_1.php">

<label for="ism">Ism </label><input id="ism" style="margin-left: 50px"

type="text"/><br/>

<label for="fam">Familya </label><input id="fam" style="margin-left: 22px"

type="text"/><br/>

<label>Parol </label><input id="in" style="margin-left: 40px" type="password"/><br/>


<input type="submit" value="Jo'natish"/>

<input type="reset" value="Tozalash"/>

</form></div>

</body></html>

```



2-tajriba ishi

Ishning mazmuni: Internet magazin uchun phpMyAdmin muhiti yordamida ma'lumotlar omborini yaratish. Foydalanuvchilar yaratish va ularga huquqlar berish. MB jadvallarini yaratish, taxrirlash

Ishning maqsadi: Talabalarga phpMyAdmin muhitidan foydalanib MySQL ma'lumotlar ombori va jadvallarini yaratish hamda MO foydalanuvchilarni yaratish va ularga huquqlar berish malakasini xosil qilish.

MySQL MBBT ning asosiy operatorlari

Ma'lumotlar bazasi bilan quyidagi amallarni bajarish mumkin:

1. Ma'lumotlar bazasini (MB) yaratish, o'chirish va o'zgartirish.
2. Foydalanuvchilarga vakolat berish, o'chirish, o'zgartirish, qo'shish.
3. Ma'lumotlar bazasi (jadval va yozuvlar)ga ma'lumotlarni kiritish, o'chirish va o'zgartirish;
4. MB ma'lumotlarini saralash.

Birinchi ikkita amalni bajarish huquqi faqatgina MBBT administratorlari va maxsus huquqi bor foydalanuvchilarga berilgan.

Ma'lumotlar bilan ishlashda ma'lumotlar bazasini yaratish, lozim bo'lganda bu ma'lumotlar saqlanadigan jadvallar strukturasini o'zgartirish va o'chirish kerak bo'ladi. Buning uchun SQL ning quyidagi operatorlari mavjud CREATE TABLE, ALTER TABLE va DROP TABLE.

Ma'lumotlar bazasini yaratish: CREATE TABLE operatori

CREATE TABLE operatori joriy ma'lumotlar bazasida berilgan nom bilan jadval yaratadi. Agar ma'lumotlar bazasi aktivlashmagan bo'lsa yoki berilgan jadval nomi mavjud bo'lsa, buyruqni bajarishda xatolik haqida ogohlantiradi.

Sintaksisi:

CREATE [TEMPORARY] TABLE [IF NOT EXISTS] jadval_nomi
[(ustunlarni_aniqlash,...)] [jadval_opsiyasi] [select_ifoda]

MySQL 3.22 va undan keyingi versiyalarida jadval nomini ma'lumotlar_bazasi_nomi.jadval_nomi kabi ko'rsatadi. Yozuvning bu ko'rinishi ko'rsatilgan ma'lumotlar bazasi joriy yoki joriymasligiga bog'liq emas.

MySQL 3.23-versiyasida vaqtinchalik jadval yaratish uchun TEMPORARY kalit so'zi ishlatiladi. Vaqtinchalik jadval bog'lanish yakunlanganda avtomatik tarzda o'chiriladi, uning nomi esa berilgan bog'lanish davomida haqiqiy hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, ikkita turli bog'lanishda mavjud jadval xuddi shunday nomli jadval bilan yoki bir xil nomli vaqtinchalik jadvallar bir-biri bilan konf-liktsiz ishlatilishi mumkin (yoki mavjud jadval vaqtinchalik jadval o'chirilguncha yashirin bo'lib turadi). MySQL 4.0.2-versiyasida vaqtinchalik jadvallarni yaratish uchun CREATE TEMPORARY TABLES vakolatiga ega bo'lish zarur.

MySQL 3.23 va undan keyingi versiyalarida ko'rsatilgan jadval mavjud bo'lsa, xato bermasligi uchun IF NOT EXISTS kalit so'zi ishlatiladi. Bu holda jadval strukturalarining bir xilligi tekshirilmay-di.

Har bir jadval ma'lumotlar bazasi katalogida aniqlangan fayllar to'plami singari tasvirlanadi.

ustunlarni_aniqlash parametri jadvalda qanday ustunlar bo'lishi kerakligini belgilaydi. Jadvalning har bir ustuni bo'sh bo'lishi (NULL), odatga ko'ra qiymatga ega bo'lishi, kalitli yoki avtoinkrement (AUTO_INCREMENT) bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, har bir ustun uchun unda saqlanadigan ma'lumotlar tipini ko'rsatish kerak. Agar NULL ham, NOT NULL ham ko'rsatilmasa, u holda ustun NULL ko'rsatilgandek, interpretatsiya qilinadi. Agar maydon avtoinkrement sifatida belgilansa, u holda jadvalga ma'lumot kiritilganda va bu maydonga bo'sh qiymat (NULL, yoki hech narsa yozilmaganda) yoki 0 kiritilganda uning qiymati har gal 1 ta qiymatga oshiriladi. Jadvalda avtoinkrement maydon faqatgina bitta bo'lishi mumkin, shuning uchun uni indekslash shart emas. Avtoinkrement ketma-ketligi 1 dan boshlanadi.

Qoidaga ko'ra ustunlar quyidagicha beriladi (ustunlarni_aniqlash):

ustun__nomi tipi [NOT NULL | NULL] [DEFAULT odatga ko'ra qiymati]
[AUTO_INCREMENT][PRIMARY KEY] [reference_definition]

Ustun tipi (ustunlarni_aniqlash parametrining ustunnomi tipi) quyidagilardan birortasini qabul qilishi mumkin:

- butun: INT[(length)] [UNSIGNED] [ZEROFILL]
- haqiqiy: REAL[(length,decimals)] [UNSIGNED] [ZERO-FILL]
- belgili: CHAR(length) [BINARY] va VARCHAR(length) [BINARY]
- katta obyektlar bilan ishlash uchun: BLOB
- matnli: TEXT
- sana va vaqt: DATE va TIME

Maydon (ustun) uzunligi kiritilayotgan qiymatda jami nechta raqam (belgi) qatnashishi kerakligini aniqlaydi. dec qatnashgan may-donlarda esa bu o'nlik kasrlarda nuqtadan so'ng, ya'ni kasr qismi nechta raqamdan iborat bo'lishi kerakligini bildiradi. Bu sonlar faqatgina ustunning maksimal uzunligini hisoblash uchun ishlatiladi.

ustunlarni_aniqlashda ustunlar soni va tipi bilan birga chegara-lash va tekshirish uchun kalitli va indeksli ustunlar ro'yxatini ham berish mumkin:

PRIMARY KEY (indekslangan_ustun_nomi, ...)

yoki

KEY [indeks_nomi] (indekslangan_ustun_nomi,...) yoki

INDEX [indeks_nomi] (indekslangan_ustun_nomi,...) yoki

UNIQUE [INDEX] [indeks_nomi] (indekslangan_ustun_nomi,...) yoki

FULLTEXT [INDEX] [indeks__nomi] (indekslangan_ustun_nomi,...) yoki

[CONSTRAINT symbol]

FOREIGN KEY [indeks_nomi] (indekslangan_ustun_nomi,...)

[reference_definition]

yoki

CHECK (expr)

FOREIGN KEY, CHECK va REFERENCES lar ayni vaqtda MySQLda hech qanday vazifani bajarmaydi. Ular boshqa SQL

serverlar bilan hamkorlik qilish uchun qo'shilgan. Shuning uchun ularga to'xtalmaymiz.

Ko'p hollarda ustunga kiritilgan qiymatlar bir-biridan farq qilishi mumkin. Agar ustun uchun UNIQUE cheklanish o'rnatilsa, bu ustunga mavjud qiymatni kiritishga urinish rad etiladi. Bu cheklanish bo'sh emas (NOT NULL) deb e'lon qilingan ustunlarga qo'llanishi mumkin.

Masalan,

```
CREATE TABLE Student (id INT NOT NULL UNIQUE, surname  
VARCHAR(100), name VARCHAR(50), stipend INT, kurs INT, city  
VARCHAR(100), birthday DATA, univ INT );
```

Unikalligi talab qilinadigan ustunlardagi kalitlar (birlamchi ka-litlardan tashqari) kandidat kalitlar yoki kalitlar deyiladi.

Jadval cheklanishi UNIQUE ustunlar guruhiga o'rnatilishi mumkin. Bu bir necha ustunlar qiymatiari kombinatsiyasi unikalligini ta'minlaydi.

SQL birlamchi kalitlarni to'g'ridan to'g'ri birlamchi kalit (PRIMARY KEY) cheklanishi orqali ta'riflaydi. PRIMARY KEY jadvalni yoki ustunlarni cheklashi mumkin. Bu cheklanish UNIQUE cheklanishi kabi ishlaydi, jadval uchun faqat bitta birlamchi kalit (ixtiyoriy sondagi ustunlar uchun) aniqlanishi mumkin. Birlamchi kalitlar NULL qiymatiga ega bo'lishi mumkin emas.

Masalan:

```
CREATE TABLE Student  
(id INT NOT NULL PRIMARY KEY, surname VARCHAR(100), name  
VARCHAR(50), stipend INT, kurs INT, city VARCHAR(100), birthday DATA, univjd  
INT);
```

Jadval yaratishda, uni ba'zi xususiyatlari (jadval_opsiyasi)ni ham ko'rsatish kerak, masalan:

- jadval tipi: TYPE = {BDB | HEAP | ISAM | InnoDB | MERGE | MRGMYISAM | MYISAM }
- avtoinkrement hisoblagichining boshlang'ich qiymati: AUTO INCREMENT = son
- jadval satrining o'rtacha uzunligi: AVGROWLENGTH = son
- jadval uchun izoh (60 belgidan iborat satr): COMMENT = «satr»
- satrning taxminiy eng katta va eng kichik qiymati: MAX_ ROWS = son va MIN_ROWS = son

NOT NULL jadval ustunidagi barcha yacheykalar qiymatga ega bo'lishi zarurligini bildiradi, agar NOT NULL ko'rsatilmasa, ustun qiymatlari bo'sh (NULL) bo'lishi mumkin.

AUTOINCREMENT — sonli ustunlar uchun ishlatiladigan MySQL ning maxsus imkoniyati. Agar jadvalga satrlarni qo'yishda ushbu maydonni bo'sh qoldirilsa, MySQL avtomatik tarzda identifikatorning unikal qiymatini qo'yadi. Bu qiymat maydondagi mavjud maksimal qiymatdan bittaga katta bo'ladi. Har bir jadvalda bunday maydon faqatgina bitta bo'ladi. AUTO_INCREMENT ustunlari indekslangan bo'lishi zarur.

PRIMARY KEY kalit so'zi ustun nomidan so'ng aniqlanib, ushbu ustun jadval uchun birlamchi kalit ekanligini anglatadi. Ushbu ustundagi ma'lumotlar unikal bo'lishi lozim. MySQL ushbu ustunni avtomatik tarzda indekslaydi.

UNSIGNED chegaralashi qo'yilgan ustun qiymati yoki butun son yoki nol bo'lishi mumkin.

1-misol. Talabalar portalining o'quv jarayoni jadvallarini yaratamiz.

```
mysqi>CREATE TABLE Student
```

(stud_id INT UNSIGNED NOT NULL PRIMARY KEY, surname VARCHAR(100), name VARCHAR(100), stipend INT, kurs INT, city VARCHAR(200), birthday DATE, univjd INT UNSIGNED NOT NULL);

```
mysql>CREATE TABLE exam_marks (exam_id INT UNSIGNED NOT NULL  
PRIMARY KEY, stud_id INT UNSIGNED NOT NULL, subj_id INT UNSIGNED  
NOT NULL, mark INT, exam_date DATA );
```

```
mysql>CREATE TABLE subject
```

```
(subj_id INT UNSIGNED NOT NULL PRIMARY KEY, subj_name  
VARCHAR(100) NOT NULL, hour INT, semestr INT);
```

```
mysql>CREATE TABLE lecturer
```

```
(lecturerJd INT UNSIGNED NOT NULL PRIMARY KEY, surname  
VARCHAR(100) NOT NULL, name VARCHAR(100) NOT NULL, city  
VARCHAR(200), univjd INT UNSIGNED NOT NULL );
```

```
mysql>CREATE TABLE subject
```

```
(lecturerJd INT UNSIGNED NOT NULL, subjjd INT UNSIGNED NOT NULL);
```

```
mysql>CREATE TABLE univercity
```

```
(univ_id INT UNSIGNED NOT NULL PRIMARY KEY, univ_name  
VARCHAR(100) NOT NULL, rating INT, city VARCHAR(200));
```

Jadval yaratishda CREATE buyrug'ining yana bir elementi SELECT ifodasi (select ifodasi) ham qatnashishi mumkin. [IGNORE | REPLACE] SELECT ... (SELECT ning ixtiyoriy to'g'ri ifodasi)

Agar CREATE buyrug'i yordamida jadval yaratishda select_ifodasi ko'rsatilsa, u holda tanlashda olingan barcha maydonlar yaratilgan jadvalga qo'shiladi.

MySql ning maxsus SHOW buyrug'i yordamida ma'lumotlar bazasi tarkibi (ma'lumotlar bazasi jadvallari va jadval maydonlari) ni ko'rish mumkin.

2-misol. Barcha ma'lumotlar bazalarini ko'rsatish:

```
mysql>SHOW databases;
```

3-misol. talaba ma'lumotlar bazasini joriy etish (aktivlashtirish):

```
mysql>use talaba;
```

4-misol. Joriy (aktiv) bazadagi barcha jadvallarini ko'rsatish:

```
mysql>show tables;
```

MySQL ma'lumotlar bazasidagi jadvallar ro'yxatini chiqazadi:


```
____ Tables in talaba _____  
____ student _____  
____ exam_marks _____  
____ subject _____  
____ lecturer _____  
____ subject _____  
____ univercity _____
```

6 rows in set (0.07 sec)

1-topshiriq: *phpMyAdmin muhiti yordamida guruh talabalari ma'lumotlar omborini yarating.*


Бажарish namunasi:

1. XAMPP dasturi boshqaruv paneli ishga tushiramiz va undagi Apache hamda MySQL bo'limlarini qarshisidagi **start** tugmalarni bosib ularni ishga tushiramiz (1-rasm).




1-rasm

2. Web brauserni ishga tushiramiz va uning manzillar qatoriga **localhost/phpmyadmin** manzilini kiritamiz. Natijada quyidagi sahifa hosil bo'ladi (XAMPP ning versiyalariga qarab bu ko'rinish boshqacharoq bo'lishi mumkin) (2-rasm).




2-rasm

3. Новая база данных maydoniga **db_gurux** matnini kiritib, keyingi **Сравнить** maydonini **utf8_general_ci** ga tenglaymiz va **Создать** tugmasini bosamiz. Quyidagi sahifa paydo bo'ladi (3-rasm).



3-rasm

4. Создать новую таблицу в базе данных db_gurux bo'limidagi **Имя** maydoniga jadval uchun nom masalan, **jadval_gurux** ni va **Количество полей** maydoniga jadval maydonlari soni masalan **8** ni kiritib **OK** tugmasi bosiladi. Quyidagi sahifa paydo bo'ladi (4-rasm).



4-rasm

5. **Поле** (maydon), **Тип** (turi), **Длина/значения** (uzunligi) kabi maydonlarni maqsadga ko'ra to'ldiramiz ya'ni jadval maydonlari nomini, turini va unga kiritish mumkin bo'lgan maksimal belgilar sonini kabilarni kiritamiz (Agar maydon avtoto'ldiriluvchi bo'lsa **A_I** bo'limi belgilab qo'yiladi. Kalitli maydon sifatida belgilanishi lozim bo'lsa **Индекс** maydoni **PRIMARY** qiymatiga tenglanadi. Bizning misolimizda **ID** maydoni shunday uchun belgilanadi) (5-rasm).

Поле	Тип	Длина/значения ¹	По умолчанию ²	Сравни
id_talaba	INT	3	Нет	
fam_talaba	VARCHAR	50	Нет	
ism_talaba	VARCHAR	50	Нет	
sharif_talaba	VARCHAR	50	Нет	
jins_talaba	VARCHAR	10	Нет	
millat_talaba	VARCHAR	20	Нет	
viloyat_talaba	VARCHAR	20	Нет	
tuman_talaba	VARCHAR	20	Нет	
	VARCHAR	20	Нет	

Комментарий к таблице:

Тип таблиц: MyISAM


Сравнение:

Определение разделов (PARTITION):

Сохранить Или Добавить 1 поле(я) OK


5-rasm

6. Tegishli maydonlar to'ldirilgach Сохранить tugmasi bolsiladi. Sahifada jadval yaratilganligi va uning maydonlari haqida ma'lumot sahifasi hosil bo'ladi (6-rasm).




6-rasm

7. **Вставить** tugmasini bosibamiz va paydo bo'lgan sahifaga jadvalning dastlabki qator ma'lumotini kiritamiz (7-rasm).




7-rasm

8. Ok tugmasini bosilsa ma'lumot saqalangani haqida quyidagi sahifa hosil bo'ladi (8-rasm).




9. Обзор tugmasini bosib jadval ma'lumotini ko'rishimiz mumkin (9-rasm)



9-rasm


2-topshiriq. phpMyAdmin muhiti yordamida MB foydalanuvchisini yarating

Бажарish namunasi: База данных: db_gurux tugmasini bosamiz. Привилегии tugmasini bosamiz. Quyidagi sahifa hosil bo'ladi (10-rasm).




10-rasm

Undan Добавить нового пользователя tugmasin bosiladi. Maydonlarni quyidagicha to'ldiramiz. Bu sahifada yangi foydalanuvchi ning nomi, xost nomi, paroli va MB bilan ishlash vakolatlari kiritiladi (11-rasm).




11-rasm

Sahifa quyi qismidan yaratilayotgan foydalanuvchi uchun huquqlarni masalan, barcha huquqlarni belgilaymiz (12-rasm).



12-rasm

Ok tugmasini bosamiz, quyidagi ma'lumot sahifasi hosil bo'ladi (13-rasm).



13-rasm

Tosphiqlar:

1. Variant bo'yicha berilgan topshiriqlarning ma'lumotlar ombori, ma'lumotlar ombori jadvalini va MO foydalanuvchisini yaratish.
2. Natijalarni tahlil qiling.
4. Bajarilgan ishlar bo'yicha hisobot tayyorlang.

Tosphiqlar variantlari:

1. Kutubxona ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
2. Avtopark ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
3. Maktab ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
4. Korxona ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
5. Oliy o'quv yurti ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
6. Minimarket ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
7. Do'kon ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
8. Kichik korxona ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
9. Futbol klubi ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
10. Vokzal ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
11. Aeroport ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
12. Kafedra ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
13. Dekanat ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
14. Sport kompleksi ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
15. Kasb hunar kolleji ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
16. Avto salon ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
17. Tuman ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
18. Shahar ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
19. Telefon tarmoq shaxobchasi ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
20. Go'zallik saloni ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
21. Omborxona ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
22. Talabalar turar joyi ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
23. Hokimiyat ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
24. Avtomobil saloni ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
25. Dorixona ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
26. Kasalxona ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
27. Institut xodimlari ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
28. Web sayt uchun buyurtmalar ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
29. O'quv kursi ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.
30. Elektron kutubxona ma'lumotlar bazasi jadvalini yaratish.

3-tajriba ishi

Mavzu: Internet magazin uchun MySQL so'rovlari bilan ishlovchi PHP buyruqlari bilan tanishish. mysql_connect va mysql_db_select operatorlari bilan ishlash. PHP sahifasi orqali ma'lumotlar bazasiga so'rovlarni tashkil etish. mysql_query operatori imkoniyatlari.

***Ishning maqsadi:** Talabalarga MySQL so'rovlari bilan ishlovchi PHP buyruqlarini o'rgatish hamda mysql_connect va mysql_db_select operatorlari yordamida MBga bog'lanish malakalarini hosil qilish. mysql_query operatori imkoniyatlari bilan tanishtirish.*

Nazariy ma'lumotlar

MySQL ma'lumotlar bazasiga WEB orqali PHP texnologiyasi yordamida so'rovlarni jo'natish algoritmi:

1. Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumotlarni filtrlash va tekshirish.
2. MySQL tizimi bilan bog'lanishni o'rnatish. Agar urinish muvaffaqiyatsiz yakunlansa, mos xabar chiqaziladi va jarayon yakunlanadi.
3. MySQL tizimida ishlash uchun ma'lumotlar bazasini tanlash. Agar tanlash urinishi muvaffaqiyatsiz yakunlansa, mos xabar chiqaziladi va jarayon yakunlanadi. So'rovlarni qayta ishlash uchun bir vaqtning o'zida bir nechta ma'lumotlar bazasini ochishga ruxsat beriladi.
4. Tanlangan bazada so'rovlarni qayta ishlash (ma'lumotlarni qo'shish uchun interfeys yaratish, ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlarni yozish, ma'lumotlar bazasida saqlanayotgan ma'lumotlarni foydalanuvchiga taqdim etish).
5. So'rovlarni qayta ishlash tugatilgandan so'ng ma'lumotlar bazasi tizimi bilan bog'lanishni yopish yoki tugatish.

1. Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumotlarni filtrlash va tekshirish.

Avval foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumot atrofidagi tasodifan yozilgan barcha ortiqcha bo'sh belgilarni (probellarni) o'chirish zarur. Buning uchun trim() funksiyasini qo'llanadi.

1-misol.

trim(\$city);

Keyingi bosqich — foydalanuvchi barcha maydonlarni to'ldirganligini tekshirish. trim() funksiyasi yordamida o'zgaruvchilar tarkibidagi qiymatlar tahrirlangandan so'ng o'zgaruvchilarni qiymatiari mavjud yoki mavjud emasligi tekshiriladi:

2-misol.

```
if (!$stud_id) || !$name || !$surname || !$kurs || !$univ_id)
```

```
{
```

```
echo "Ko'rsatilgan maydonlar to'ldirilmagan. To'ldirish zarur bo'lgan maydonlarga  
ma'lumotlarni kiriting va qayta urinib ko'ring.";
```

```
exit;
```

```
}
```

Foydalanuvchi ma'lumotlarini MySQL ma'lumotlar bazasiga yozishdan avval addslashes() va stripslashes() funksiyalari yordamida tahrirlab olish mumkin.

htmlspecialchars() funksiyasi ma'lumotlarda uchraydigan ((&) ampersand, (<) kichik, (>) katta, (") ikkitalik qo'shtirnoq) belgilarini HTML kodirovkasiga o'tkazish uchun ishlatiladi.

2. MySQL tizimi bilan bog'lanishni o'rnatish.

mysql_connect() funksiyasi

mysql_pconnect() funksiyasi MySQL tizimi bilan bog'lanishni o'rnatadi. Sintaksisi:

```
int mysql_pconnect ([string xost [:port][:soketga yo'l] [, string foydalanuvchi_nomi] [,string  
parol])
```

yoki

```
resource mysql_pconnect ([server satri [,username satri[,password satri [, int new_link [, int  
client_flags]]]])
```

xost parametrda MySQL tizimining vakolatlar jadvalida ko'rsatilgan kompyuter xosti nomi beriladi. Bu nom MySQL ishlayotgan Web-serverga so'rovlarni yo'naltirish uchun ishlatiladi, biroq MySQL tizimiga masofadan turib ham bog'lanish mumkin. Xost nomi berilganda shart bo'lmagan parametrlari — port nomeri, soket(lokal xost uchun) yo'lini ham ko'rsatish mumkin. foydalanuvchi_nomi va parol parametrlari MySQL vakolatlari jadvalida berilgan foydalanuvchi nomi va paroli bilan mos tushishi kerak. Agar xost parametri berilmagan bo'lsa, mysql_pconnect() lokal xost bilan aloqani o'rnatishga harakat qiladi.

3-misol. MySQL bilan ochiq bog'lanish:

```
@ $db = mysql_pconnect("localhost", "goyipov", "12345");
```

Berilgan misolda localhost — kompyuter xost nomi, goyipov – foydalanuvchi nomi, 12345 esa — parol. mysql_pconnect() funksiyasi oldidan ishlatiladigan @ belgisi bog'lanish urinishi muvaffaqiyatsiz yakunlanganda chiqadigan xatolarni yashirish uchun ishlatiladi. Bu belgi die() funksiyasi chiqazadigan xatolar haqidagi xabarlarni almashtiradi.

Agar funksiyaga bir xil avvalgi parametrlar bilan ikki marta murojaat etilsa, yangi bog'lanish o'rnatilmaydi, lekin murojaat (ssil-ka)ni eski bog'lanishga qaytaradi. Bu holatga duch kelmaslik uchun, newlink parametri ishlatiladi. Bu parametr ixtiyoriy holatda yana bir bog'lanishni ochishga yordam beradi.

client_flags parametri — bu quyidagi konstantalarni kombinatsiyasi: MYSQL_CLIENT_COMPRESS (siqish protokolini ishlatadi), MYSQL_CLIENT_IGNORE_SPACE (funksiya nomidan so'ng probellarni o'qish uchun imkoniyat yaratadi), MYSQL_CLIENT_INTERACTIVE (bog'lanish yopilguncha-wait_timeout bilan birga — interactive timeout sekund kutadi).

new_link parametri PHP 4.2.0-versiyasidan, client_flags parametri esa PHP 4.3.0-versiyasidan boshlab qo'shilgan.

Tizim bilan bog'lanish agar mysql_close() funksiyasi yordamida yopilmagan bo'lsa, skript bajarilishi tugatilganda yopiladi.

4-misol. goyipov foydalanuvchisi uchun «12345» paroli bilan lokal serverdagi ma'lumotlar bazasiga bog'lanishni o'rnatamiz:

```
<?php  
$conn = mysql_pconnect("localhost", "goyipov", "12345")  
or die ("Bog'lanish o'rnatilmadi: mysql_error());  
echo "Bog'lanish o'rnatildi";  
?>
```

Natija: Bog'lanish o'rnatildi

Agar dastur turli xostlarda bir nechta MySQL tizimlari bilan bog'lanishni o'rnatasa, kerakli MySQL tizimiga mysql_pconnect() funksiyasi qaytargan bog'lanish identifikatoridan foydalanib so'rovlarni yo'llash mumkin.

5-misol.

```
<?php
$link1 = @mysql_pconnect("localhost", "goyipov", "12345") or die("localhost serveriga bog'lana olmadi!");
$link2 = @mysql_pconnect("www.birorhost.uz", "foydalanuvchi", "parol") or die("MySQL server ga bo'glana olmadi!");
?>
```

\$link1 va \$link2 identifikatorlari ma'lumotlar bazasiga so'rovlar bilan oxirgi murojaatni uzatadi.

Ko'p foydalanuvchilar muhitida tizim resurslarini tejash uchun mysql_pconnect() ni mysql_connect() bilan birgalikda ishlatish tavsiya etiladi. mysql_pconnect() funksiyasining parametr tiplanri va qaytaradigan qiymatiari mysql_connect() funksiyasi bilan mos tushadi, bittagina farqi mysql_connect() funksiyasi ma'lumotlar bazasiga doimiy bog'lanib turish uchun ishlatiladi.

3. MySQL tizimida ishlash uchun ma'lumotlar bazasini tanlash.

MySQL tizimiga muvaffaqiyatli bog'lanib boigandan so'ng, tizimda mavjud so'rovlar olib boriladigan ma'lumotlar bazasi tanlanadi. Bizning ma'lumotlar db_gurux ma'lumotlar bazasida saqlanmoqda. MySQL ma'lumotlar bazasidan foydalanish uchun avval db_gurux ma'lumotlar bazasi tanlanadi (aktivlashtiriladi).

PHP da buning uchun mysql_select_db funksiyasi ishlatiladi.

mysql_select_db() funksiyasi

Sintaksisi:

int mysql_select_db (string ma'lumotlar_bazasi_nomi [, int bog'lanish_identifikatori])

ma'lumotlar_bazasi_nomi parametrda tanlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlar bazasi ko'rsatiladi, bog'lanish identifikatori parametrda esa bir nechta ochiq bog'lanishlardan ma'lumotlar_bazasi_nomi nomli bazaning bog'lanish identifikatori ko'rsatiladi.

Bu funksiya ma'lumotlar bazasini muvaffaqiyatli tanlaganda TRUE ni, aks holda FALSE ni qaytaradi.

6-misol. db_gurux ma'lumotlar bazasini tanlaymiz:

```
<?php
@mysql_connect("localhost", "goyipov", "12345")
or die ("Bog'lanish o'rnatilmadi");
echo "Bog'lanish o'rnatildi<br>";
@mysql_select_db("db_gurux")
or die ("db_gurux ma'lumotlar bazasi tanlanmadi!");
?>
```

Ma'lumotlar bazasiga bog'lana olmaganda yoki ma'lumotlar bazasini tanlamaganda brauzerda quyidagicha xabarlar chiqaziladi.

Natija: Bog'lanish o'rnatildi
db_gurux ma'lumotlar bazasi tanlanmadi!

Agar dasturda faqatgina bitta ma'lumotlar bazasi tanlanayotgan bo'lsa, uning identifikatorini saqlash shart emas. Lekin bir nechta ma'lumotlar bazasini tanlashda ularning qaytaradigan

identifikator-lari saqlanishi kerak. Chunki, keyinchalik kerakli bazaga so'rovlarni qayta ishlash uchun jo'natish imkoniyati mavjud bo'lsin. Agar identifikator ko'rsatilmagan bo'lsa, oxirgi tanlangan ma'lumotlar bazasi ishlatiladi.

mysql_close() funksiyasi

mysql_close() funksiyasi shart bo'lmagan bog'lanish_identifikatori parametri bilan bog'lanishni yopadi. Agar parametr berilmagan boisa, mysql_close() funksiyasi oxirgi ochiq bog'lanishni yopadi.

Sintaksisi:

int mysql_close ([int bog'lanish_identifikatori]) mysql_pconnect() funksiyasi yordamida o'rnatilgan ochiq bog'lanishni yopish shart emas.


1-topshiriq: MySQL tizimi bilan bog'lanishni o'rnatish

Bajarish namunasi: Sublime daturini ishga tushiramiz. Misolimizda MB uchun foydalanuvchi nomi GoyipovUmidjon parol 123456 bo'lganini hisobga olib quyidagi buyruqlarni yozamiz.

```
<?php
```


```
@mysql_pconnect("localhost","GoyipovUmidjon","123456") or die("Bog'lanishda xatolik");  
echo "Bog'lanish o'rnatildi";
```

```
?>
```




```
1 <!DOCTYPE html>  
2 <html>  
3 <head>  
4 <title></title>  
5 </head>  
6 <body>  
7 <?php  
8 @mysql_pconnect("localhost","GoyipovUmidjon","123456")  
   or die("Bog'lanishda xatolik");  
9 echo "Bog'lanish o'rnatildi";  
10  
11 ?>  
12 </body>  
13 </html>
```

Web brauzerda natijani ko'ramiz.



Bog'lanish o'rnatildi

Agar biror hatolik bo'lsa masalan foydalanuvchi parolini xato yani 123456 emas 1234 shaklida yozib qo'ysak quyidagi natija chiqadi



Bog'lanishda xatolik

2-topshiriq: Kerakli ma'lumotlar bazasini tanlang.


